

ABDUQAYUM YO'LDOSHEV HIKOYALARIDA RAMZIYLIKNING O'RNI

Yodgorjon Zokirjanov

Mustaqil tadqiqotchi

yodgorjonzokirjonov99@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.16257392>

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshevning hikoyalari tahlil qilingan. Ayniqsa, ijodkor hikoyalarida ramziylikning o'rne alohida ahamiyat kasb etgan. Xususan, yozuvchi hikoyalaridagi davr ruhiyati, ijtimoiy kayfiyat masalalari haqida mulohazalar bildirilgan. Hikoyalardagi obrazlar ruhiyati va psixologiyasi orqali davr manzarasi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, davr koloriti, psixologizm, janr, obraz, ijtimoiy kayfiyat.

Annotation: This article analyzes the stories of the renowned writer Abduqayum Yuldashev. The role of symbolism is particularly important in the creative stories. In particular, it offers reflections on the spirit of the era and issues of social mood portrayed in the writer's stories. The landscape of the time is reflected through the mentality and psychology of the characters in these narratives.

Keywords: story, period atmosphere, psychologism, genre, character, social mood.

Kirish. O'zbek adabiyoti nasrida hikoya janri badiiy saviyasi baland asar hisoblanadi. Hikoyada davr va qahramon masalasi, xarakterlar talqini asarning asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Bu janr azal-azaldan didaktik ma'no kasb etadi. Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo'lgan, qanday ro'y bergan, kim bilan – bular to'g'risida ma'lumot berish shart emas. Ammo personaj yashayotgan muhit va uning ta'siri asarda, albatta, bayon qilinadi. Davr va inson muammosi adabiyotshunoslikda muhim o'rin egallab kelayotgani, inson xarakteri va ijodkor badiiy olamining mushtarakligi, ijodkor badiiy dunyosining hali ilg'anmagan jihatlari, ochilmagan qirralarini tadqiq qilish zarurligini taqozo etmoqda. Badiiy adabiyotda namoyon bo'luvchi real-tarixiy zamon, makon hamda insonni idrok etish jarayoni sekinlik bilan, murakkab kechmoqda. Makon va zamonning alohida xususiyatlari, shunga aloqador holatda, janr yo'nalishlari va badiiy ifodalashning real jihatlari insoniyat qo'lga kiritgan tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq holda o'rganilmoqda.

Abduqayum Yo'ldoshev asarlarini kuzatar ekanmiz, unda bosh qahramon hayotida kechayotgan ruhiy evrilishlarga duch kelamiz. "Tushov", "Biz bo'lmagan joylarda", "Bezori" kabi hikoyalari yozuvchining ijodiy shaxs konsepsiyasini belgilab beruvchi asarlar deb ayta olamiz. Bugungi kunda adibning bir qator sara qissalari, hikoyalari nashr qilindi. Yozuvchining har bir asari matbuot yuzini ko'rar ekan, ijodkor o'z uslubi bilan kitobxon qalbini zabt eta oldi. Adib asarlarini o'quvchi o'z xayollarida hamda ko'z o'ngida gavdalanitira oladi. Buning boisi, muallif, asosan, syujetni o'z hayotida guvohi bo'lgan voqealarga tayanib aks ettiradi. Buni biz birgina "Bezori" hikoyasi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Hikoyanavis Abduqayum Yo'ldoshevning o'ziga xosligi shundaki, uning hikoyalarida jamiyatda uchrab turadigan muammolar – ikkiyuzlamachilik, zo'ravonlik, loqaydlik, beparvolik, bepisandlik, xudbinlik, shuhratparastlik, kibr, mahmadonalik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik, bir so'z bilan aytganda, ko'pincha shaxs, jamiyat ma'naviyatidagi

bo'shliqlar haqqoniy aks ettirilgan. Bunday illatlar barcha davrlardagi singari bugungi kun kishilari hayotida ham uchrab turadi. Yozuvchi hikoyalarida kundalik turmushimizda uchrab turadigan bunday holatlarni chuqur tahlil qilishga kirishadi. Adabiy-badiiy xronotopda makon va zamon alomatlarini bir butun holda va aniq idrok etish mumkin. Bu yerda vaqt quyuqlashadi, tig'izlashadi, badiiy nigohga aylanadi; makon esa vaqt, syujet va tarix harakati doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlari makonda namoyon bo'lsa, makon zamonda o'lchanadi va anglanadi. Badiiy xronotop tabiati mana shunday qorishiq alomatlar oqimida namoyon bo'ladi. Abduqayum Yo'ldoshevning barcha hikoyalarida zamon va makon uyg'unligini – xronotopni kuzatishimiz mumkin.

Hikoyalarda haqqoniy hayot manzaralari, millat, el-yurt g'ami, orzu-intilishlari ifodasini badiiy bo'yoqdorlik bilan ifodalaydi. Jumladan, adibning "Homiy", "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari", "Boy", "Mix", "Alvido go'zallik", "O'zgalar fikri", "Muammo bormi?", "Hissa", "Bandi", "Yetim so'z" kabi bir qancha hikoyalarida jamiyatda uchrab turadigan muammolar, insonlar o'rtasidagi ayrim ziddiyatlar qalamga olinadi. Bunday muammolarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy mohiyatini badiiy asoslashga harakat qilgan adib, kitobxonni ibratli va hayotiy misollar vositasida tarbiyalash maqsadini ko'zda tutadi.

Jamiyatda yashayotgan shaxs o'zining ma'lum bir ijtimoiy muhitda shakllangan qarashlari, orzu-intilishlariga ega va ular o'zi mansub bo'lgan guruhning vakillarining dunyoqarashiga mos keladi. Inson jamiyatsiz yashay olmasligi rad etib bo'lmas haqiqat. Har qanday shaxs o'zi yashayotgan makon va zamonga, u yaratgan qoidalarga, ta'bir joiz bo'lsa, "qoliplarga" moslashadi. Aks holda u jamiyatdan uzilib qoladi. Habibulla Qodiriy "Otam haqida" nomli kitobida Abdulla Qodiriyning "Robinzon Kruzo" asari haqidagi ayrim fikrlarini eslab o'tadi. Muallifning aytishicha, Daniel Defo "inson jamiyatsiz ham yashay oladi, u shaxs sifatida mavjud ekan, demak u hech kimga muhtoj emas" tarzida fikrlaydi va buni isbotlash maqsadida yuqorida nomi zikr etilgan asariga qo'l uradi. Abdulla Qodiriyning aytishicha, Daniel Defo o'z qarashlarini himoya qila olmagan. Chunki u yaratgan qahramonning tirik qolishiga xizmat qilgan qurol ham jamiyat vakillarining ixtirosi, Jumavoy obrazi ham jamiyat a'zosi edi. Shunday ekan, jamiyat va davr inson shaxsiyatiga ta'sir etuvchi, uni shakllantiruvchi asosiy omillardir. Darhaqiqat, badiiy asarlarga jonlilik baxsh etadigan tushuncha – real shaxs tushunchasi hamisha asosiy o'rinda turadi. Nega deganda, o'quvchi hamisha haqiqat izlaydi. Agar qahramon davr ruhi bilan "sug'orilmagan" bo'lsa u "soxta qahramon"dir. Albatta, zamon va makondan uzilib qolgan bunday qahramonlar ijobiy obraz sifatida shakllana olmaydi.

Abduqayum Yo'ldoshev kichik hajmli hikoyalariga shunday xarakterlar yaratadiki, o'zining murakkabligi, irodaliligi va irodasizligi, kuchi va kuchsizligi, sabri va sabrsizligi, baxti va baxtsizligi, qo'li uzun yoki imkonsizlik darajasini mahorat bilan qorishtirib ko'rsatadi. Chunki inson mukammal emas. Shuning uchun ham o'quvchi uni bir nafasda o'qib chiqadi. Muallifning "Dahshat" hikoyasi qahramonlari Nozim va Zuhra ham bugungi kunning urchib borayotgan "kasalligi" ga duchor bo'lishgan. To'y harajatlari, soxta obro' orttirish vasvasasi, sog'likdan ko'ra o'tkinchi havaslarni ardoqlash kabi illatlar asiriga aylanib ulgurganlar. Bugungi jamiyatning og'riqli nuqtalari bu ikki qahramon hayoti orqali g'oyatda mahorat bilan tasvirlangan.

Asar ko'proq fikr-o'ylar bayoni asosiga, dialoglarning kamligi bilan xarakterlidir. Bu ham o'quvchiga Nozim va Zuhra ruhiy holati qay darajada "to'kilishga tayyor turgan devor" holatiga kelib qolganini yaqqol ko'rsatadi. Qayta-qayta "xalq tabobati" ga murojaat qilishi esa

sog'lik uchun chiqimdor bo'lishni xohlamasligini ifodalamoqda. "Surxondaryoda o'sadigan xurmo, aptekadan yod olib, oz-oz ichib turish, aroqqa sarimsoqqiyozi solib 12 soat muzlatkichda saqlash" kabi suvtekin, tajribadan o'tmagan, inson salomatligiga ziyon yetkazadigan "xalq tabobati" bilan kasalni davolamoqchi va shu bilan sog'lik uchun sarflanadigan pulni tejab, odamlar ortiqcha gap-so'z qilmasliklari uchun dabdabali to'y o'tkazmoqchi bo'lgan Nozimlar, yig'ib terganini "orzu-havas qilganman" deya soat sayin so'lib borayotgan Zuhralar jamiyatda ko'payib borayotgani achinarli holat va bu adabiyotda ham bo'y ko'rsatmoqdaki, zero obrazlar hayoti ibrat bo'lsin.

Abduqayum Yo'ldoshev jamiyatning "obro'talablik vasvasasi"ga uchragan insonlarni o'z hikoyalari qahramonlariga aylantirish hamda murakkab va mukammal obraz yaratish bo'yicha ancha mahoratli yozuvchidir.

XX asr o'zbek adabiyotida realistik prinsip yetakchilik qila boshlagan davrdir. G. Prospelovning uqtirishicha, hayotni badiiy aks ettirishning realistik prinsipiga asoslangan asarda "...yozuvchi o'z qahramonlarini o'zlari yashagan davr va muhit ijtimoiy munosabatlari asosida shakllangan ijtimoiy xarakterlari xususiyatlariga, ularning ichki mantig'iga muvofiq tarzda harakat qilish (istash, o'ylash, his etish, gapirish) ga majbur qiladi"¹. Bundan kelib chiqish mumkinki, davr va inson muammosi yoritilgan asarlar realizm namunalari bo'lib, uning qahramonlari zamona bilan hamnafas bo'lgan, davr qoidalariga bo'ysungan, ammo bu tobelik evaziga hayotidan ayrim narsalarni qurbon berayotgan kishilar ("Og'zi qiyshiq bo'lsa ham...", "Dahshat" hikoyasi qahramoni) dir. Ayrimlari esa jamiyatning "tuzumiga" moslasha olmay o'z yog'iga o'zi qovurilayotgan insonlar ("Hissa", "Bezori" hikoyasi qahramonlari) obrazi hisoblanadi.

"Hissa" hikoyasi qahramonining: *"...Men ularning hamma-hammasi bilan xuddi shunday musobaqa o'ynayman. Xuddi shunday ... Zig'irchayam farqi yo'q... Nimasini aytay, umrim shunday o'yin bilan o'tib ketyapti"*² tarzidagi iqrori bugungi davr kishilarining to'yona uchun kimo'zarga pul berish kabi mazmunsiz harakatlarni aks ettirmoqda. "Odamlar nima deydi", deb harakat qilayotgan odam munofiq bo'ladi. Afsuski, munofiqlik kundan kunga jamiyat bo'ylab ildiz otib bormoqda.

*"...Nalogini olgandan keyin yo'lni remon qilib qo'ysa bo'lmaydimi?... Sodiqlik bejiz tutamaydi, bejiz fig'oni falakka chiqmaydi, axir, jimitday ehtiyot qismning narxi osmonda bo'lib turgandan keyin"*³. Bu jumla qahramonning narx-navoning balandligidan, transport yo'llarining nosozligidan, demakki, davr va muhitdan noroziligini ko'rsatib turibdi, shuning uchun bo'lsa kerak, jizzaki, haddan tashqari ehtiyotkor.

Xulosa. Har qanday badiiy obraz singari inson obrazi – personaj ham konkret davr, hudud va ijtimoiy muhitda harakat qiladi. Muayyan kasb-kor bilan mashg'ul bo'ladi. Va ularning barchasi qahramonning nutqida aks etadi. Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalari ham personaj nutqi uning psixologik holati bilan birga muhitini ham namoyon etadi. Qahramonning muhit bilan konflikti uning boshqa personajlar bilan to'qnashuvlar, ruhiyatidagi ziddiyatlar tasviri orqali ochib beriladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ijodkorning ikki hikoyasi – "Dahshat" va "Hissa" hikoyasi qahramonlari va ularda tasvirlanayotgan jarayon bugungi kunning asl qiyofasidir. Ijodkor to'y

¹ Проспелов Г.Н Проблемы исторического развития литературы. – М. 1972. – с.52.

² Yo'ldoshev A. Mubtalo. – T.: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 149.

³ Yo'ldoshev A. Mubtalo. – T.: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 151.

mashmashalarini “musobaqa” sifatida tasavvur qiladi va uni o‘rinli ravishda to‘g‘ri ta’riflay oladi.

Biz ushbu bobda “Hissa” va “Dahshat” hikoyalarida yoritilgan inson va davr muammosi masalasiga kengroq to‘xtalishga harakat qildik. Adabiyot davr bilan hamisha hamnafas, shundy ekan davr ta’siri inson siyratida hamisha aks etaveradi.

Bitiruv malakaviy ishning ushbu bobida ijdkor hikoyalaridagi maishiy hayot tasviri, ijtimoiylik, muallifning ruhiy-psixologik ijod uslubidagi o‘ziga xoslik quyidagi hikoyalar asosida o‘rganildi: “Vido ziyofati”, “Mashaqqatlar osha olis yulduzlar sari”, “Parim bo‘lsa...”, “Bezori”, “Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham...”, “Muhtalo”, “Karomat”, “Alvido, go‘zallik”, “Puankare”. Ijodkor “Mashaqqatlar osha olis yulduzlar sari”, “Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham...”, “Alvido, go‘zallik”, “Puankare” hikoyalarida maishiy hayotda insonni ruhan va jismonan moslashish jarayoni, aniqroq aytganda qahramonlarning hayotida ijtimoiylik munosabatlari, bugungi globallashuv jarayoni kishilarining shaxsiy dunyoqarashlari aks etgan. Farzandiga kitob o‘qitish bilan mashhurlikka erishmoqchi bo‘lgan ota-onalar “Mashaqqatlar osha olis yulduzlar sari...” hikoyasida tasvirlangan bo‘lsa, insoniyat o‘zi yaratib olgan “qonun-qoidalarga” o‘zining qul bo‘lishi “Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham...” hamda “Puankare” hikoyalarida aks ettirilgan. “Puankare” hikoyasida esa ijodkor kishilarning ijtimoiy munosabatlarini mukammal tasvirlab bera olgan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev A. Muhtalo. – T.: Yangi asr avlodi, 2023. –304 b.
2. Ёўлдошев А. Дарё. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 413 б.
3. Қўчқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 232 б.
4. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 224 б.
5. Quvonch Mamiraliyev. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi. – Toshkent: Anorbooks, 2024. – 208 b.
6. Quvonch Mamiraliyev. (2022). Genre modification in Uzbek poetry of the independence period. European. Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(3), 115-119. Retrieved from. <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/1916>